

NIZOLARNI YENGIB O‘TISHNING PSIXOLOGIK O‘ZIGA XOSLIGI

Tojiboyeva Gulxumor Raxmonjonovna
Andijon davlat universiteti professori, PhD

E-mail: tojiboyevagulxumor@mail.ru

+998907701095

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxslararo nizoning yuzaga kelishi, dinamikasi va so‘nggi natijasini belgilovchi psixologik omillar, nizoli xulq-atvorga shaxslilik moyilligi sifatidagi tajovuzkorlik shuningdek, nizo dinamikasi xususiyatlarini aniqlab beruvchi omillar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: nizolar, shaxslararo nizolar, shaxslararo nizo tuzilmasi va dinamikasini, kognitiv va emotsional jarayonlar, affektiv holat, konstruktiv nizolar, destruktiv nizolar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРЕОДОЛЕНИЯ КОНФЛИКТОВ

Аннотация. В данной статье говорится о психологических факторах, определяющих возникновение, динамику и конечный исход межличностного конфликта, агрессии как склонности личности к конфликтному поведению, а также факторах, определяющих особенности динамики конфликта.

Ключевые слова: конфликты, межличностные конфликты, структура и динамика межличностного конфликта, когнитивные и эмоциональные процессы, аффективное состояние, конструктивные конфликты, деструктивные конфликты.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF OVERCOMING CONFLICTS

Abstract. This article talks about psychological factors that determine the occurrence, dynamics and final outcome of interpersonal conflict, aggression as a personality tendency to conflict behavior, as well as factors that determine the characteristics of conflict dynamics.

Key words: conflicts, interpersonal conflicts, interpersonal conflict structure and dynamics, cognitive and emotional processes, affective state, constructive conflicts, destructive conflicts.

Shaxslararo nizolar muammosini muhokama qilishda yuzaga keladigan ko‘pchilik savollar ichida nizoni yuzaga keltirishda ahamiyatga ega bo‘lgan va nizo

dinamikasi xususiyatlarini aniqlab beruvchi omillar haqidagi savollar aniq yoritilmaganligini qayd etish mumkin.

Maxsus adabiyotlarni birlamchi tahlilidayoq shu narsa namoyon bo‘ladiki, aynan alohida omillar xususiyatlari va ularning birikmasiga shaxslararo nizolarning barcha turli shakllari bog‘liq bo‘ladi.

Juda ko‘p tadqiqotchilar shaxslararo nizolar determinatsiyasi ob‘yektiv va sub‘yektiv omillar o‘zaro ta‘siri bilan aniqlanishi haqidagi holatni aytib o‘tadilar: birinchisi nizolarning salohiyatli imkoniyatini, ikkinchilari esa uning amalga oshirish xususiyatlarini yuzaga keltiradi. [1].Shaxslararo nizolarda inson intilishlarining qarama-qarshiligi, ya‘ni ularning biror maqsadga erishishdagi xulq-atvori va ustanovkalari sub‘yektiv sabablar sifatida ko‘rsatiladi [2].

Ba‘zi tadqiqotchilar shaxslararo nizolar sabablari sifatida bir-birlarini past baholash fonida o‘zini o‘zi baholashning yuqorilab ketishi, izzat-nafsoniyatning kamsitilishi va boshqalarni ko‘rsatib o‘tadilar, ularni shaxslararo nizoni yuzaga kelishiga olib keluvchi sabablarning shaxslilik darajasiga kiritish mumkin [3].

Sub‘yektiv omillar ichida shaxsning nizoli vaziyatda u yoki bu xulq-atvor tendensiyasini tanlashga moyilligi alohida ahamiyat kasb etadi. Shubhasiz, insonning shaxslararo nizo vaziyatidagi xulq-atvori uning shaxslilik xususiyatlari bilan belgilanadi. Shuning uchun tadqiqotchilar oldida bir qator savollar yuzaga keladi:

- nizoli vaziyatda shaxs xulq-atvorining qanday shakllari unga xos hisoblanadi?
- har bir konkret holatda shaxs ma‘qul ko‘rgan xulq-atvor usulini tanlashning psixologik mexanizmlari qanday?
- shaxs tomonidan shaxslararo nizoni hal qilishning odatiy usullari qanchalik turg‘un?

Bir qator mualliflar shuni ko‘rsatib o‘tadilarki, nizoli vaziyatda shaxslararo o‘zaro ta‘sir qatnashchilarining har biri tomonidan tanlanadigan xulq-atvor strategiyasini belgilab beruvchi ahamiyatga molik shaxslilik omillari ichida nevrotizm, bezovtalanishning yuqori darajasi, ichki shaxslilik nizolarining vaziyatli holati, maxsus himoya mexanizmlari, masalan, ratsionalizatsiyaning mavjudligi muhim rol o‘ynaydi. [4].

Shaxslararo nizo determinatsiyasida shaxsdagi ichki nizo kabi shaxlilik omiliga alohida e‘tibor qaratiladi. Ta‘kidlanadiki [1], bunday holatda shaxslararo nizo shaxsdagi ichki nizoni hal qilish vositasi sifatida yuzaga chiqishi mumkin.

Nizoni yuzaga keltiruvchi shaxslilik omillari qatoriga adabiyotlarda ehtiyojlar darajasining yuqoriligi [5], impulsivlik, dominantlik, rigidlik kiritiladi [1]. Shaxslilik omillari sifatida “noadekvatlik samarasi” ham qayd etiladi [6], u shaxsdagi o‘zini o‘zi yuqori baholash va uni oqlay olmaslikdan qo‘rqish to‘qnashganda yuzaga keladi.

Shaxslararo nizoning yuzaga kelishi, dinamikasi va so‘nggi natijasini belgilovchi psixologik omillar qatoriga bir qator mualliflar nizoli xulq-atvorga shaxslilik moyilligi sifatidagi tajovuzkorlikni ham kiritadilar[1].

Shuni ta’kidlash joizki, shaxslararo nizoni voqelik sifatida aniqlovchi omillarning o‘ziga xos xususiyatlari turli tumandir. Biroq faqatgina bitta omilning mavjudligi ham nizoni keltirib chiqarishi mumkinligini osongina tasavvur qilish mumkin, bir vaqtning o‘zida esa shunday holatlarni ham kuzatish mumkinki, ko‘pgina oddiy nizoni yuzaga keltiruvchi omillar birikmasi ham insonlar o‘rtasida to‘qnashuvlarni keltirib chiqarmaydi.

h uchun psixologik hodisalar determinatsiyasining ko‘p darajali va ko‘p omilli xarakteri

Shuning uchun nizoli vaziyat va nizoli vaziyatdagi o‘zaro ta’sir kabi jabhalarni ajratish

kning bu ikki tomonini ajratish quyidagicha bo‘ladi.

Insonlarning o‘zaro ta’sir tizimi. Har qanday tizim kabi unga ob’yektiv xos bo‘lgan holatlar yig‘indisi bilan xarakterlanadi. Shaxslararo o‘zaro ta’sir tizimining bunday holatlaridan bo‘lmagan tarzda nizoli holat deb baholash imkonini beruvchi alohida ob’yektiv omillar

t
o

‘ Nizoli vaziyatning mavjudligi yuqorida ta’kidlanganidek, kognitiv shaxslararo nizo xususiyatlarini ko‘rib chiqishda o‘zaro ta’sir nizoli tip bo‘yicha rivojlanadi degani emas. Tahlili mkin, ulardan har biri nizoli vaziyat qatnashchilari o‘rtasidagi munosabatlar rivojlani

Birinchi, bu vaziyatdan qochish; ikkinchidan “muzokaralar”, “savdolashish” ontatsiyasi bilan bog‘liq nizoli munosabatlar.

Shaxslararo nizolarning yuzaga kelishi va rivojlanishidagi ob’yektiv va sub’yektiv omillar mutanosibli dinamikasi tahlili qila turib E.A.Orlova va L.B.Filonov quyidagi qonuniyatlarni ajratib ko‘rsatadilar:

izoli vaziyat qatnashchilari tomonidan xulq-atvorni konkret shakllarining amalga oshrilishi juda bo‘lmaganda bitta tomonning o‘zaro ta’sir tipiga nisbatan qaror qabul qilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Har ikkala qatnashchilarning o‘zaro ta’sir yo‘nalishi, xulq-atvor tuzilmasi xarakterini tanlashi, shuningdek, bu xatti-harakatlar samaradorligi xulq-atvor mexanizmlarining vaziyatga qanchalik mos kelishi va qaror qabul qilish uchun ular qay darajada maqbul ekanligiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘zaro ta’sirning tuzilmaviy jabhalarni belgilovchi hamda individual harakatlar va xulq-atvor mexanizmlarini aniqlab beruvchi psixik mexanizmlarni tanlash har bir qatnashchida mazkur konkret vaziyat uchun zarur bo‘lgan to‘plamlardan ortib ketishi kerak.

bevosita xulq-atvori xarakteri o‘zaro ta’sir qatnashchilari alohida shaxslilik xususiyatlariga

borib taqalmaydi va faqat ularga bog‘liq bo‘lib qolmaydi. Amalga oshirilayotgan xulq-atvor o‘ziga xos proyeksiya bo‘lib, ulardan har biri mazkur o‘zaro ta’sir vaziyatini yuzma yuz kelganda qanday belgilashiga bog‘liq.

Nizoli vaziyatdagi o‘zaro ta’sir haqida gap ketganda, shuni ta’kidlash joizki, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir xarakteri o‘zgarishini o‘rganish xulq-atvorning keyingi patternlari sifatida qatnashuvchi ba’zi holatlarni ajratish imkonini beradi.

Ma’lumotlar tahlili nizoli vaziyatda shaxslararo munosabatlar rivojlanishini belgilovchi uchta faza yoki bosqichni ajratib ko‘rsatadi.

Birinchi faza vaziyatni nizoli deb baholash bilan bog‘liq. Vaziyatni nizoli deb anglash va idrok qilish lahzasi juda muhim, chunki u o‘z o‘zidan mazkur holatda o‘zaro ta’sirni kerakli darajada tuzilmaga aylantiruvchi xulq-atvor patternlarini shakllantiruvchi mexanizmga aylanadi.

Ikkinchi faza nizoli vaziyatdagi o‘zaro ta’sirni shakllantiruvchi strategiyani tanlashga bog‘liq. Nizoli vaziyatdagi u yoki bu xatti-harakatlarni dolzarblashtirish ob’yektiv va sub’yektiv omillarning konkret birikmasi bilan bog‘liq. O‘zaro ta’sirning bu fazasida har bir qatnashchi xulq atvorning ma’lum chizig‘ini shakllantiradi, bu esa o‘z navbatida keyinchalik umumiy strategiya ko‘rinishini oladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, xulq-atvorning bunday umumiy shakllarini kamida uchga bo‘lish mumkin: qochish, “muzokaralar” – “savdolashish” va nizoli strategiyaning o‘zi.

Va nihoyat uchinchi bosqich o‘zaro ta’sir umumiy strategiyasi doirasida xatti-harakatni tanlash bilan bog‘liq. Nizo rivojlanishining bu bosqichida o‘zaro ta’sir ishtirokchilarining shaxslilik xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Shaxslararo nizolar tuzilmasi va dinamikasini tahlili qilishga bag‘ishlangan adabiyotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotchilarning diqqat doiralaridan, ya’ni ilmiy refleksiya doirasidan mazmunan oddiy, lekin juda muhim bo‘lgan savol tushirib qoldiriladi: shaxslararo nizo o‘zi nimadan boshlanadi? Bu savolga javoblar turlicha bo‘lib, insidentdan tortib vaziyatni nizoli sifatida anglash lahzasi va x.k.lardan iborat bo‘lishi mumkin.

Shaxslararo nizoning u yoki bu tuzilmasiga va uning rivojlanish bosqichlariga qaratilgan yondashuvlar berilish bo‘yicha juda chegaralangan. Shaxslararo nizo mummosining bu jabhasini ishlab chiqishda shaxslararo nizoli munosabatlar orqaga qaytmaydigan mojaroli tus olishi ehtimoli, biroq bunday bo‘lmasligi ham mumkinligini tasvirlash juda muhimdir. Bu zo‘riqish, noturg‘un muvozanat lahzasi bo‘lib, unda arziyas ta’sir vaziyatni qaytarib bo‘lmaydigan darajada rivojlantirib yuborishiga olib kelishi mumkin, ya’ni u nizodagi bifurkatsiya nuqtasi deb ataladi (A.I.Prigojin). Bu arziyas ta’sirlar qanday bo‘lishi mumkin? Bu har ikkala yoki bitta opponent xatti-harakati bo‘lishi mumkin, unda bu holat insident bo‘lib, nizoni tartibsiz rivojlanishiga olib keladi, o‘zining destruktiv oqibatlari bilan xavflidir. Lekin bu psixologning xatti-harakati ham bo‘lishi mumkin, unda psixolog nizoni va uning rivojlanishini nazorat qiladi va nizoning konstruktiv salohiyatini haqiqatga aylantiradi.

Shaxslararo nizo tuzilmasi va rivojlanishi tahliliga bifurkatsiya nuqtasining kiritilishi, bizning nazarimizda maxsus adabiyotlarda javobi topilmagan bir qator savollarga javob berish imkonini beradi:

nizoning konstruktiv salohiyatini dolzarblashtirish sharoitlari;

shaxslararo nizolarni boshqarish shakllari;

shaxslararo nizoni boshqaruvchi sub'yekt;

shaxslararo nizoni boshqarish samaradorligini oshirish shart-sharoitlari;

shaxslararo nizo diagnostikasi va boshqalar.

Zamonaviy psixologiyada shaxslararo nizo muammosi holatining tahlili shaxslararo nizolarni keltirib chiqaruvchi ob'yektiv va sub'yektiv omillar hamda sabablar, ularning dinamikasi, nizoga kirishgan tomonlar xulq-atvori tuzilmasi va strategiyasini tadqiq qilish bilan bir qatorda shaxslararo nizo psixologik belgilarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar o'tkazilmasa to'liq bo'lmay qoladi. Bu tadqiqotlar doirasida olingan ma'lumotlar shunisi bilan qiziqarliki, tashqaridan nizoli xulq-atvor xususiyatlarida namoyon bo'ladigan shaxslararo nizo vaziyati bilan bog'liq "ichki" psixik jarayonlar va holatlar dinamikasini tushunish imkonini beradi. Adabiyotlar tahlili shaxslararo nizolarning psixologik belgilariga quyidagilarni kiritish mumkinligini ko'rsatadi:

Shaxs va guruh uchun dominant ahamiyat kasb etuvchi ehtiyojlarni dolzarblashtirish;

Nizoli munosabatlar sub'yektlarining yuqori darajadagi psixik zo'riqlashlari;

- kognitiv va emotsional jarayonlar disgarmonizatsiyasini;

- affektiv holatlarni nazorat qilishning pasayishini;

- xulq-atvor, tafakkur, gaplarning stereotipliligi;

- o'zining va boshqalar qadriyatlarini qiyosiy baholashni o'z foydasiga hal qilish;

- raqibi idrokiga nisbatan salbiy ustanovkani shakllantirish;

Nizoli munosabatlarni o'zaro ta'sirning bir sohasidan boshqa bir sohalarga – shaxsiy sohadan ish sohasiga, rasmydan norasmiyga va x.k.ga o'tkazish;

Nizoga kirishuvchilarning psixik holatlari psixik jarayonlarning totalligi, bir joyda qotib qolishi, baholar va fikrlarning keskinligi va yagonaligi bilan xarakterlanadi.

Shunday qilib, nizoli vaziyatni voqelik sifatida o'rganishda asosiy yo'nalishlar sifatida quyidagilarni ajratish mumkin::

- guruhdagi (guruh ichidagi nizo) shaxslararo nizoning birgalikdagi faoliyat samaradorligiga ta'siri;

- guruhdagi shaxslararo nizoninigi yuzaga kelish ehtimolini oshiruvchi omillar;

- guruhdagi shaxslararo nizolarning yuzaga kelishidagi ob'yektiv va sub'yektiv sababalar, ularning xarakteri, mutanosibligi va dinamikasi;

- shaxslararo nizolarning individual-psixologik sabablari;

- shaxslararo nizolar tuzilmasi va uning dinamikasi;

- shaxslararo nizo qatnashchilarining psixologik holati xususiyatlari va ularni psixologik o'lchash;

- shaxslararo nizolar profilaktikasi usullari va shakllari; destruktiv shaxslararo nizolarning konstruktiv shaklga o'tishi.

Ko'rsatilgan yo'nalishlar doirasining har birida bugungi kunda juda ko'p empirik material to'plangan. Biroq uni tizimlashtirish va nazariy umumlashtirish qiyinchiliklar bilan bog'liq, ularning sababi esa bizningcha, birinchidan shaxslararo nizoning ko'p darajaliligi va ko'p omilligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan shaxslararo nizolar o'rganilayotgan birlamchi nazariy manbalarning butunlay turli-tumanligidadir.

Empirik ma'lumotlarni shaxslararo nizoni turli jabhalarga ajratish asosida umumlashtirishga intilishlar kam samarali hisoblanadi, chunki bunday holatda tadqiqotchi turli nazariy yondashuvlar pozitsiyasidan turib olingan butunlay qarama-qarshi ma'lumotlarga duch keladi.

Shaxslararo nizolarni o'rganish bo'yicha maxsus adabiyotlar tahlili uning muammosi o'rganilayotgan bir nechta asosiy tadqiqot yondashuvlarini ajratish imkonini beradi.

Tadqiqot yondashuvlarini klassifikatsiyalashga intilish shaxslararo nizolar borasidagi asosiy tadqiqotlar ommasini tashkil etgan turli xildagi empirik ma'lumotlarni tizimlashtirish zarurati bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR

1. Занюк С. Психология мотиваций: Теория и практика мотивирования. Мотивационный тренинг. К.: Эльга – Ника-Центр, 2000. 1352 с.
2. Сидоренко Е.В. Методы математической обработки в психологии. - СПб.: Речь, 2001. - 350с.
3. Методы эффективной психокоррекции. Хрестоматия /Сост. К.В. Сельченко. Харнес. 1999. 816 с.
4. Черняк Т.В. Конфликтология: Хрестоматия - Новосибирск: СибАГС, 2000. 163 – 171 с.
5. Лэнг Р.Д. Раколотное «Я»: перевод с англ. СПб: Белый Кролик, 1995. 352 с.
6. Масияев О.И. Психология. Д.: Сталкер, 1997. 416 с.
7. Паренс Г. Агрессия наших детей. Москва, 1997.